

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN

Yunus Rajabiy rahbarligi O'zbek milliy universiteti tomonidan

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil "21" 08 oyida "2023" yilning 367-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

KIRITILGAN


O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60210900 -Bastakorlik san'ati bakalavriat
ta'lim yo'nalishining malaka talablari

Ushbu Malaka talabi "Oliy ta'lim davlat ta'lim standartlari. Asosiy qismlar" va "Oliy ta'lim davlat ta'lim standartlari. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari kriteriyalari" O'zbekiston Respublikasi Milliy va ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (markasi), kasbiy mahoratlar va kasbiy psixometriyani ta'limga ta'riflash ishlab chiqarish va umumiy ma'yoq-psikey hajmi ta'riflash.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabi ta'lim standartlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

- Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil “21” 08” dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60210900-Bastakorlik san'ati</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>60210900-Bastakorlik san'ati</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60210900-Bastakorlik san'ati</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	<i>60210900-Bastakorlik san'ati</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60210900-Bastakorlik san'ati</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari.....	4
1.2.3.	<i>60210900-Bastakorlik san'ati</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60210900-Bastakorlik san'ati</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60210900-Bastakorlik san'ati</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	7
2.3.2.	<i>60210900-Bastakorlik san'ati</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.3.	<i>60210900-Bastakorlik san'ati</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	8
	<i>Bibliografik ma'lumotlar</i>	9
	<i>Kelishuv varag'i</i>	10

1. 60210900 - Bastakorlik san'ati bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi

60210900 - Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat daturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60210900 - Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **60210900 - Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishi** bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

–mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

–ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

–bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

–ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

–oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

–oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

–kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

–oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60210900 - Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60210900 - Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60210900 - Bastakorlik san'ati bakalavriat ta'lim yo'nalishi – fan, ta'lim va san'at sohasidagi bakalavriat yo'nalish bo'lib, san'at va madaniyat muassasalarida, davlat va mahalliy boshqaruv organlarida, davlat korxonalarida va tashkilotlarida, ta'lim muassasalarida, turli fondlar va loyihalarda hamda turli mulkchilik shaklidagi san'atga oid ishlar bilan bog'liq tashkiliy-ijodiy-iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, san'at ta'lim sohasining tegishli yo'nalishlari bilan bog'liq kompleks masalalari mazmunini qamrab oladi.

1.2.2. 60210900 - Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

–san'at sohasidagi tegishli jarayonlar;

–ijodiy faoliyat jarayonlari;

–mualliflik huquqi himoyasiga tegishli qoidalar, san'at sohasining axborot va dasturiy ta'minoti,

–yaratilgan asarlar va ularning targ'iboti, ijodiy g'oyalarini loyihalash va amaliyotga tatbiq qilish jarayonlari;

–o'quv-tarbiya jarayoni.

1.2.3. 60210900 - Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ijodiy-ijrochilik;
- professional ta'lim, kasb-hunar, umumiy o'rta va o'rta maxsus, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari hamda musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda pedagogik;
- ijtimoiy-ma'rifiy;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati.

1.2.4. 60210900 - Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishi bo'yicha baklavrlarning kasbiy vazifalari:

60210900 - Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ijodiy-ijrochilik faoliyatida:

- musiqiy asarlarni yuksak badiiy saviyada yaratish bilan bog'liq ijodiy ishlarni olib borish;
- ularni ijro etish ko'nikmalari va zamonaviy musiqiy ifodalash vositalarini egallash;
- ijro etilayotgan asarlarning mazmuni, shakli va uslubini baholash;
- katta va kichik jamoalarni dirijorlik nuqtai-nazaridan boshqara olish;
- simfonik orkestriga rahbarlik qila olish;
- turli xil jamolarni biriktirgan holda musiqiy asarlarning ijrosiga rahbarlik qila olish;
- musiqiy asarlarning badiiy konsepsiyasini yaratib, teatr-konsert muassasalari, orkestr va ansambllarda dirijorlik qilish;
- musiqaning mazmuni, shakli va uslubini tushunish;
- ijrochilik va improvizatsiya ifodalilik vositalari, dirijorlik mahorati;
- jamoa ijrochiligi qobiliyatiga ega bo'lish.

Professional ta'lim, umumiy o'rta va o'rta maxsus, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatda:

-professional ta'lim, kasb-hunar, umumiy o'rta va o'rta maxsus, maktabdan tashqari ta'lim tizimining ixtisoslikka mos ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va yakka (laboratoriya) mashg'ulotlarini o'tkazish;

-zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish usullarini ishlab chiqish va o'tkazish;

-o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni shakllantirish va tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;

-o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning didaktik vositalaridan foydalanishi;

-mustaqil ta'lim va ilmiy-ijodiy izlanish ishlari natijasida o'qitilayotgan fan bo'yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;

-o'quv-tarbiyaviy, uslubiy va ilmiy-tadqiqiy ishlarni rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish;

-musiqa olami hodisalarini mustaqil anglash va ta'lim jarayoniga singdirish;

-o'quv jarayonini, o'quv-uslubiy, ma'naviy-tarbiyaviy va ilmiy ishlarni tashkil etishning ilg'or tajribalarini umumlashtirish va keng yoyish.

Ijtimoiy-ma'rifiy faoliyatda:

-kasbiy va havaskorlik badiiy jamoalarda rahbar va maslahatchi sifatida keng ko'lamda musiqiy-ma'rifiy ishlarni olib borish, milliy va jahon musiqa ijodiyoti, ijrochilik yutuqlarini targ'ib etish;

-yoshlar bilan musiqiy-tarbiyaviy ishlar bilan shug'ullanish, aholi tarkibidagi har xil guruh va qatlamlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olishni uddalash.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

–ijodiy jarayonlarni tashkil etish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish;

–ijodiy jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

–informatsion texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ijodiy jarayonlarni monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

–atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ijodiy jarayonlarni nazorat qilish;

–kompozitorlik va kompozitorlik ko'nikmalarini amaliyotga tadbiq qilish;

–ijodiy jarayonda sifatni boshqarish;

–ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

–fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

–birlamchi kompozitorlik, musiqiy asar yoki uni qayta ishlash ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

–bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

–ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda musiqa san'atiga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;

–internet tarmog'ida eng yangi ilmiy-ijodiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

–musiqa san'atiga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

–kasbiy faoliyat ob'ekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish;

–ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;

–ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

–tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;

–ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish.

2. 60210900 - Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

–davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

–barqaror rivojlanish va media falsafa masalalarini kasbiy faoliyatda qo'llay olish;

–xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;

–axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, hamkorlik yozishmalari va elektron aloqalarni olib borish, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

–Kompozitorlik bo'yicha muhim voqealar, ijodkorlar ijodi, tarixiy jarayonlar va ularning musiqaga ta'siri kabi masalalarni davrlar kesimida o'rganishi;

–Jahon zamonaviy musiqasida ro‘y berayotgan turli yangiliklar, asar va partituralarni o‘rganish, tahlil qilish hamda egallangan bilimlarni o‘z asarlarida qo‘llash;

–Aranjirovka qilishga oid yangi kompyuter dasturlaridan foydalangan holda o‘z asarlarini turli yo‘nalishlarda aranjirovka qilishga oid bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;

–Milliy musiqa cholg‘ularidan birini (yoki bir nechtasini) o‘rganish va uni bevosita amaliyotda qo‘llay olishi.

–O‘zbek mumtoz musiqa ijrochiligidagi namunalarni mustaqil ravishda notalashtira olishi;

–O‘zbek bastakorlik ijodiyoti, tarixi, zamonaviylik tamoyillarini hozirgi kun nuqtai – nazari bilan taxlil etish mahoratiga ega bo‘lishi.

–O‘zbek mumtoz musiqa ijrochiligi (o‘zbek musiqasining ustuvor asosi – Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, katta ashula va b.) – og‘zaki an‘anadagi ustozona musiqani tarixiy, nazariy, amaliy jihatdan o‘rganishi.

–Jahon musiqasi tarixi va zamonaviy kompozitorlik ijodiyotidan xabardor bo‘lishi, musiqiy tanqidiy sohaga oid bilimlarga, maxsus janrlari yuzasidan yetarli bilimlarga ega bo‘lishi va tanqidiy fikrlar yurita olishi, radio va telejurnalistika notiqiligi sohasiga oid ko‘nikmalar hosil qilishi ;

–Musiqiy – nazariy (garmoniya, polifoniya, solfedjio, Musiqiy-nazariy tizimlar, monodiyaning nazariy asoslari) fanlar bo‘yicha yetarli bilim va amaliyotga ega bo‘lgan holda ilmiy faoliyatida ulardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;

–Pedagogik mahoratiga, kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar bilan ishlar mohiyatini tushunishi, musiqa san‘ati fanlari bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar:

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriyat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta‘minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta‘lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot – pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: Kompozitor. Umumiy fortepiano o‘qituvchisi.

2.3.2. 60210900 - Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratiladigan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	6300	210
Tanlov fanlar	360	12
Malakaviy amaliyot	390	13
Bitiruv malakaviy ishi	150	5
JAMI:	7200	240

2.3.3. 60210900 - Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	6300	210	
1.01	KS1829	Kompozitorlik san'ati	870	29	1-8
1.02	CHG'K1205	Cholg'ushunoslik (simfonik orkestr; an'anaviy o'zbek cholg'ulari)	150	5	1-2
1.03	CHG'SH1613	Cholg'ulashtirish (simfonik orkestr) va aranjirovka (an'anaviy o'zbek cholg'ulari)	390	13	3-8
1.04	PTO'1307	Partitura o'qish	210	7	1-3
1.05	JMT 1205	Jahon musiqasi tarixi	150	5	1-2
1.06	O'MT1409	O'zbek musiqasi tarixi	270	9	1-4
1.07	O'MTN1409	O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi (maqomlar tahlili)	270	9	3-7
1.08	AO'MA1102	An'anaviy o'zbek musiqasi	60	2	3
1.09	SHMT1205	Sharq xalqlari musiqa tarixi	150	5	5-6
1.10	O'BI1205	O'zbek bastakorlik ijodiyoti	150	5	5-6
1.11	S.MS.1307	Solfedjio. Maqom solfedjio	210	7	1-3
1.12	G1309	Garmoniya	270	9	1-3
1.13	MAT1307	Musiqa asarlari tahlili	210	7	4-6
1.14	PYA1410	Polifoniya	300	10	3-4
1.15	FNO1205	Fortepiano	150	5	1-2
1.16	MPP1205	Musiqiy pedagogika va psixologiya	150	5	7-8
1.17	KP1105	Kasbiy pedagogika	150	5	8
1.18	ATM1205	Axborot texnologiyalarida musiqani matematik modellashtirish	150	5	4
1.19	BO'U1203	Bastakorlikni o'qitish uslubiyoti	90	3	7
1.20	AM1205	Aruz va musiqa	150	5	1-2
1.21	SHPA1205	Shashmaqom parda (lad) asoslari	150	5	5-6
1.22	SHKA1204	Shashmaqom kompozitsion asoslari	120	4	7-8
1.23	CHSO'1606	Cholg'u sozlarni o'rganish	180	6	1-6
1.24	AB1609	An'anaviy bastakorlik	270	9	3-8
1.25	NSH1205	Notalashtirish	150	5	1-2
1.26	MG'P1205	Maqom turkumidagi g'azallar poetikasi	150	5	5-6
1.27	ARA1209	Aranjirovka asoslari	270	9	7-8
1.28	AZG1205	An'anaviy musiqaning zamonaviy nota grafikasi	150	5	5-6
1.29	DNK1204	Dinshunoslik	120	4	3-4
1.30	FFA1204	Falsafa	120	4	7-8
1.31	O'YT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1-2
2.00		Tanlov fanlar	360	12	1,2,3,4,8
		Jami	6660	222	
		Malakaviy amaliyot	390	13	2,4,6,8
		Bitiruv malakaviy ishi	150	5	8
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning ta'lim dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, kasb ta'limi, kasbiy psixologiya, kasbiy pedagogika, ta'limda informatsion texnologiyalar, kasbiy ta'lim didaktikasi, kasbiy pedagogik mahorat, pedagogik texnologiyalar, uslubiyot, kompozitorlik san'ati, kompozitorlik, ijodiy asar, musiqiy asar, duet, trio, kvartet, ansambl, orkestr, partitura, milliy yo'nalishda ijod, o'zbek maqom san'ati, jahon musiqasi yo'nalishida ijod, ijodiy jarayon, qayta ishlash, original asar, opera, opera librettosi, simfoniya, polifonik, variatsiya shakli, torli kvartet, kantata, poema, klassitsizm.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
60210900 - Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv
rejasini ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ _____ ” _____ 2023 yil

Biz quyidagi imzo chekuvchilar—O'zbek milliy maqom san'ati markazi direktori S.Begmatov, O'zbekiston davlat konservatoriyasi rektori K.Urinbayev, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti rektori O.Nazarbekov birgalikda Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSiDa ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60210900 - Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5131-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “2019-2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi PQ-4369-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O'zbek milliy maqom san'ati
markazi direktori

O'zbekiston davlat
konservatoriyasi rektori

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek
milliy musiqa san'ati instituti rektori



S.Begmatov

K.Urinbayev

O.Nazarbekov

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar istemolchilari
ISHLAB CHIQLGAN:

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy
musiqa san'ati instituti

Rektor [Signature] O.A.Nazarbekov

2023 yil « 14 » 08



M.O'.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat va turizm vazirligi
"Ta'lim va ilm fanni rivojlantirish
boshqarmasi"

Direktor [Signature] Sh.U.Yakubov

2023 yil « 14 » 08

M.O'.



Boshqarma boshlig'i [Signature] N.K.Kasimov

2023 yil « 15 » 08

M.O'.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Rektor v.v.b [Signature] E.O'.Shermanov

2023 yil « 15 » 08

M.O'.



Rektor [Signature] K.T.Urinbayev

2023 yil « 16 » 08



O'zbekiston kompozitorlari va
bastakorlari uyushmasi

O'zbek milliy maqom san'ati
markazi

Rais [Signature] R.A.Abdullayev

2023 yil « 17 » 08

M.O'.



Direktor [Signature] S.M.Begmatov

2023 yil « 17 » 08

M.O'.

